



## O‘ZBEKISTONDA SUD-HUQUQ ISLOHOTLARI: YUTUQLAR VA KELGUSIDA VAZIFALAR.

*Safarov Bobur Axmadovich, magistr.*

*"B-Legion Law" advokatlik byurosi advokati*

[+99891 0742832](tel:+998910742832)

[+99888 190 2888](tel:+998881902888)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada O'zbekistonda sud tizimida amalga oshirilayotgan bir qator muhim islohotlar, shu jumladan sud-huquq tizimidagi yangiliklar va Sud – zimmasiga davlat hokimiyatining bo'g'inlaridan biri – Sud hokimiyatini amalga oshirish yuklangan mustaqil organ ekanligi haqida so'z yuritiladi.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *Sud hokimiyati, islohotlar, huquqiy, demokratik, siyosiy-huquqiy tahlil.*

### KIRISH

Prezidentimizning shu yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ham ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni tubdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur hujjatda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, 2023-2026 yillarda sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli Strategiyasi va uni amalga oshirish



bo'yicha Harakatlar dasturi tasdiqlandi. Harakatlar dasturida sud tizimini yanada islox qilishga qaratilgan asosiy ustuvor yo'nalishlar, maqsad va vazifalar sifatida "Xabeas korpus" institutini amaliyotga yanada kengroq joriy etish, sudyalarning ixtisoslashuvini yanada kengaytirish, sud ishlarini ko'rishda yagona sud amaliyotini ta'minlash, sudyalarning mustaqilligini ta'minlashning yangi mexanizmlarini yaratish, sud hokimiyatining nufuzi, mavqei va obro'sini yanada yuksaltirish choralarini ko'rish va boshqa muhim masalalar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari, muddatlari va mas'ul organlar aniq belgilab berildi.

### ASOSIY QISM

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash, qiynoqni oldini olish bo'yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu yo'nalishda maxsus qonun qabul qilish, sud tizimini bosqichma – bosqich raqamlashtirish ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Sudyalarning mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biror bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 111 – moddasida "O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi Sudyalarning hamjamiyatining organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solish qonun bilan belgilanadi" – deb qayd qilingan[2].



Sudyalar oliy kengashiga konstitutsiyaviy maqom berilganligi unga yuklatilgan vazifalarni mustaqil va samarali amalga oshirilishining muhim konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi. Qayd etish joizki, xalqaro standartlarda butunlay amalga oshiruvchi organ maqomi konstitutsiyaviy tartibga solishi yuksak e'tirof etiladi. Shuning uchun ham ko'pgina rivojlangan demokratik davlat konstitutsiyalari bunday vazifalarni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi normalarni o'zida ifodalagan. Bu yerda yana bir e'tiborli jihati shundaki, mazkur organni tashkil etish va uning faoliyati davlat boshlig'i farmoyishi bilan tasdiqlangan nizom asosida emas, balki qonun bilan belgilanishidir. Biz bilamizki, qonunlar eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, oliy davlat vakillik organi tomonidan deputatlar va senatorlar ishtirokida bir necha va davomli muhokamalardan so'ng qabul qilinadi.

Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish masalasida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham o'z aksini topgan. Ushbu strategiyada mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash, qiynoqni oldini olishbo'yichapreventiv mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu yo'nalishda maxsus qonun qabul qilish, sud tizimini bosqichma – bosqich raqamlashtirish ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu asnoda, Prezidentimizning 2020 - yil 29 - dekabr kuni Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomasida yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini takomillashtirish masalalariga alohida to'xtalib, erishilgan natijalar va kelgusidagi vazifalar haqida to'xtalib o'tganligi ham bir isbotdir. Murojaatnomada sud sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan bir qator vazifalar, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga, uning nufuzini oshirib borishda, fuqarolarning huquq



va erkinliklarini har tomonlama ishonchli himoya qilishda, yangi bir davrni boshlab berishi shubhasiz. [3].

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, oxirgi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh qilish borasida 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilinganligini, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallashini, bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina ekanligi davr taqozosidir.

Sud-huquq tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda. Ushbu chora-tadbirlar tufayli 2,3 mingga yaqin nohaq ayblangan shaxslar, 3,5 ming nafardan ortiq xatolik bilan jinoyat yo'liga kirib qolgan, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinishi mumkin bo'lgan 3,5 ming nafardan ortiq yosh va ayollarga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ozod etildi. Mahalla va jamoatchilik kafolati sifatida yengilroq jazolar belgilandi. Inson huquqlarini qo'pol ravishda buzgan 60 nafar huquq-tartibot idoralari xodimlari jinoiy javobgarlikka tortildi. BMTning sudyalari va advokatlar mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diego Garsiya-Sayan ham bu boradagi ijobiy o'zgarishlarni e'tirof etdi.

O'z navbatida, sud-huquq sohasini isloh qilish yo'nalishida hali ko'p ishlar qilinishi kerakligini ta'kidlash lozim. Xususan, 2020-yil 30-sentabr holatiga ko'ra mavjud ma'lumotlarda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida nazarda tutilgan 22 ta chora-tadbirlardan "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"ning 10 tasi amalga oshirildi. Sud tizimi hozirgi O'zbekiston hududida davlatchilikka xos ko'p asrlik tarixga ega. Sud faoliyatini qadimdan xalq madaniyati, an'analari va ma'naviy negiziga asoslanib, obro'-e'tiborli, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishilar amalga oshirishgan. Ular chiqargan qarorlar har qanday shubhadan xoli va barcha uchun majburiy hisoblangan.



O'zbekistonda qariyb o'n uch asr davomida shariat qonunlariga amal qilgan qozilik sudi hamda xalq urf-odatlar va an'analariga suyanib qaror qabul qilgan biylar sudi mavjud bo'lgan[4].

## XULOSA

Shuni xulosa qilib aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida belgilangan vazifa-topshiriqlar asosida sud-huquq tizimini isloh etish yo'nalishidagi huquqiy yechimini topish zarur bo'lgan muhim va dolzarb masalalar bo'yicha qonunlarning qabul qilinishi xalqimizning davlatimizda amalga oshirilayotgan oqilona siyosatga ishonchini yanada oshirmoqda. Shu amaliy ishlar hokimiyat tizimida sudlar mustaqilligini yanada mustahkamlaydi va odil sudlov darajasini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirib, demokratik huquqiy davlat qurish hamda adolatli fuqarolik jamiyatini qurishimizga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Prezident farmoni.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish choratadbirlari to'g'risidagi" farmoni
4. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar fan-darsligi. (Toshkent-2020).